

O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

G.Usmonova

Navoiy viloyati Karmana tumani 6-umumta’lim
maktab psixologi

Bizga ma’lumki, intellekt inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatini, ongli xatti-harakatining oliy shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni anglash quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning muhim sharti sanaladi. Haqiqatdan ham intellektual salohiyatni yuksaltirish bugungi kunda milliy taraqqiyotning asosiy sharti va mezoniga aylanib bormoqda. Chunki intellektual jihatdan qoloq xalq hech qachon rivojlanmaydi. Shuni aytish joizki, dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar eksport qiladigan mahsulotlarining ko‘pchiligi intellektual mulk hisoblanadi.

Insonning intellekti ancha murakkab tuzilishga ega bo‘ladi va faqat ko‘plab fikrlash turlarini emas, balki har xil intellektual operatsiyalar, malaka va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir.

Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda pedagogika va psixologiyada ikki xil qarash mavjud:

1. Intellekt - nasliy xususiyat, ya’ni avloddan avlodgao‘tuvchi tug‘ma xususiyat sifatida.
2. Intellekt - organizm imkoniyatlari va maqsadga muvofiq ta’lim-tarbiya ta’sirida shakllanuvchi xususiyat sifatida.

O‘shib kelayotgan yosh avlodda intellektual salohiyatni rivojlantirish orqali ijodiy faollikni va uning negizida yotuvchi ijodiy qobiliyatni shakllantirish respublika maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki «hozirgi maktabning asosiy vazifasi ta’lim metodlarini, o‘quvchilarning fikrlashlarini taraqqiy ettirish metodlarini takomillashtirishdir».

Bilimlarni o‘zlashtirish, avvalo, o‘quvchining o‘qishga nisbatan emotsional munosabatiga bog‘liq. Uning bilim olishga qiziqishi, chanqoqligi o‘qishga undovchi motivlarning paydo bo‘lishiga, bilimlarni to‘la o‘zlashtirilishga olib keladi. O‘quvchining fanlar bo‘yicha turli bilimlarni egallab borishi aqliy rivojlanishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bilimlar o‘z ichiga ilmiy faktlarni, qonun va qoidalarni, xossa va xususiyatlarni, voqea va hodisalarni, murakkab ichki munosabat va bog‘lanishlarni qamrab oladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni tafakkurining rivojlanishiga bag‘ishlangan qator yirik nazariyalar mavjud, quyida shularning biriga to‘xtalamiz.

P.Y.Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariya L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevlarning interiozatsiya g‘oyasidan kelib chiqqan bo‘lib, inson ontogeneza rivojlanish protsessida, tashqi harakatlarni asta-sekin ichki, aqliy harakatlarga aylanish jarayonini ro‘y berishini nazarda tutadi. P.Y.Galperin olib borgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, dastavval aqliy harakatni oriyentirlash asosi aniqlanadi va u 3 ta tipga ajratiladi:

-aqliy harakatlarni oriyentirlash asosining 1-tipi mahsulot namunalaridan iborat bo‘lib, harajatni qay yo‘sinda bajarish to‘g‘risida yo‘llanma berilmaydi. Sinaluvchilar «buzib-tuzatish» yo‘li bilan o‘zicha harakat qiladi;

-aqliy harakatni oriyentirlash asosining 2-tipida esa berilayotgan material spesifikasiga oid harakatlarni qaysi usul bilan aniq bajarish yuzasidan yo‘l-yo‘riq beriladi;

-aqliy harakatni oriyentirlash asosining 3-tipida topshiriqni tahlil qilishni rejali tarzda o‘tkazish nazarda tutilib, uni to‘g‘ri bajarish shart-sharoitlari ajratib ko‘rsatiladi. 3-tiptan foydalanib ish tutilganda, aqliy harakatlar xatosiz yangi sharoitga ko‘chiriladi.

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga hamda oriyentirlash nazariyasiga binoan, oriyentirlash asosining tiplarini o‘quvchi topshiriqni bajarishdan oldin amalga oshiradi. O‘quvchi bevosita topshiriqni bajarishga kirishgandan keyin harakatning

moddiy bosqichi boshlanadi: unda o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlarga taalluqli tasviriy materiallar yoki ularning tabiiy ko'rinishi namoyish qilinadi. Navbatdagi bosqichda aqliy harakatlarning moddiy namunalarga tayanmagan holda ovoz chiqarib mulohaza yuritish bosqichi boshlanadi.¹

Nutq vositasida mulohaza yuritish moddiy harakatning inikosi tariqasida namoyon bo'ladi. Aqliy harakatlarning keyingi bosqichida ovoz chiqarib mulohaza yuritish ichki planga (ichda gapirishga) ko'chishdan iboratdir. Va nihoyat, aqliy harakatlarning oxirgi bosqichi ichki nutq vositasi bilan o'zi uchun «dilda» harakat qilish bilan xarakterlanadi. Oxirgi bosqich mulohaza yuritishning yig'irligi bilan boshqa bosqichlardan keskin ajralib turadi.

P.Galperin rahbarligida o'tkazilgan tadqiqot o'quvchilar tafakkurini o'stirish imkonini ko'rsatmoqda.

D.Elkonin va V.Davidov rahbarligi ostida o'tkazilayotgan tajribalar kichik yoshdagi o'quvchilarning intellektual rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish va bu imkoniyatlarni ishga solish yo'l va vositalarini o'rganishga bag'ishlangan. Ularning ta'kidlashicha, maxsus tashkil etilgan ta'lim tizimi natijasida o'quvchilarni abstrakt fikr yuritish darajasi yanada ko'tarilishi mumkin. Tajribalarda nazariy va umumlashtiruvchi xarakterdagi bilimlarning berilishi, o'quvchilarga umumiy qonuniyatlardan konkret ko'rinishlarga o'tish imkonini yaratmoqda, ya'ni umumiy hollardan xususiy holatlarga o'tish amalga oshirilmoqda. Chunki busiz aqliy taraqqiyot darajasi to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiq emas.

Taniqli psixologlardan biri E.N.Kabanova-Meller o'quvchilar aqliy taraqqiyotini ta'limiy usullar, o'quv ko'nikma, malaka va aqliy faoliyatning yangi sharoitga «fanlararo» qo'llanishga ko'chishda, ularda tarkib topgan ko'nikma, malaka, usul va aqliy faoliyat shaxsning o'z aqliy faoliyatini bevosita idora qilishga, boshqarishga o'tishda, tashqi ta'sir natijasida sinaluvchilarning bilishga qiziqish faoliyati qay darajada ekanligini aniqlashda deb talqin qiladi.

Shunday qilib, ta'lim va taraqqiyot masalasi yuzasidan xilma-xil nazariyalar, turli ilmiy aspektlar bo'lishiga qaramay, aqliy taraqqiyot komponentlari va uning mezonlari jihatidan qarashlari turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, pedagog-psixolog olimlarimiz barcha yoshdagi o'quvchilarning aqliy taraqqiyot darajalarini aniqlash bo'yicha qator yo'l-yo'riqlar va samarali usullarni ishlab chiqmoqdalar. Har bir tadqiqotchi ta'limning aqliy taraqqiyotdagi rolini e'tirof etmoqda, ularning individual xususiyatlari va intellektual imkoniyatlariga alohida e'tibor bermoqda. Ta'lim aqliy taraqqiyotni o'z orqasidan yetaklab borishi kerak degan tamoyilga sodiq qolmoqdalar.

J.Piaje intellektni quyidagi rivojlanish bosqichlariga ajratadi:

- sensomotor intellekt (tug'ilgandan to 2 yoshgacha);
- operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 11 yoshgacha);
- aniq operatsiyalar davri (7-8 yoshdan to 11-12 yoshgacha);
- formal (ramiy) operatsiyalar davri.

A.S.Efimovning yozishicha, ijodiy fikrlaydigan va ijodiy faoliyat ko'rsatadigan bolalarni tarbiyalab yetishtirmay turib, bola shaxsining har tomonlama o'sib kamolotga yetishishi mumkin emas deb hisoblagan. Bunday bolalarni tarbiyalash, faqat pedagogika va psixologiyadagina emas, balki ideologiyaning barcha sohalarida, madaniyatda, fanda, texnikada, adabiyot va san'atda eng muhim markaziy masalalardan biri ekanligini ta'kidlagan.

N.K.Krupskayaning fikricha, «ta'limning va o'quvchilarning aqliy o'sishining muvaffaqiyati beriladigan ma'lumot mazmuni bilangina emas, balki bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirishni ko'zda tutadigan o'qitish metodlarini qo'llanish bilan ham belgilanadi. O'qitish metodlari faol bo'lishi hamda bolalarning aqliy kuchlarini ishga solish kerak» - deb hisoblaydi.

E.G'oziyevning o'quv qo'llanmasida tafakkurning ta'limdagi roli juda muhimligini ta'kidlaydi. Tevarak atrofdagi voqelikni bilish uchun kishida fikr yuritish operatsiyalari, tafakkur shakllari yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Ma'lumki, o'qitishning barcha metodlari

¹ G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi-Toshkent- "O'qituvchi"-1990. 97-b.

o'quvchilardan mustaqillik, faollik, operativlik, ijodiy yondashishni talab qiladi. Aqlning bu muhim xususiyatlarini tafakkur rivojisiz tarkib toptirib bo'lmaydi. Shuning uchun ta'lim jarayonida tafakkurni taraqqiy ettirish bosh vazifa hisoblanadi.

Aqliy analiz o'quvchilarda 3-sinfdan boshlab asta-sekin sistemalashib boradi. Dastavval, aqliy analiz elementlari amaliy analiz bilan aralashgan holda keladi. Masalan, bolalar tashqi ko'rinishi bir-biriga o'xshagan turli buyum va hodisalarni analiz qilish paytida bevosita idrokka bog'lanib qolmas balki ular to'g'risida yig'ilgan bilimlarni ham ishga soladilar. Birinchi sinf o'quvchilarining tafakkuri quyidagicha rivojlantirilsa, samarali natijalar berishi mumkin. Bolaning «Bu nima?», «Nega bunday?» degan savollariga o'zi javob berishiga o'rgatish kerak. Bu o'rinda asosiy vazifa unga to'g'ri ko'rsatma berish, uni mantiqiy xatolardan qutqarish, to'g'ri mulohaza yuritishga ko'maklashishdan iboratdir.

Intellektni tadqiq qilgan olimlar A.S.Kaldibekova, B.X.Xodjayeavlarning fikricha, bilish psixologik aks etish jarayoni, bilimlar hosil bo'lishi va o'zlashtirilishining ta'minlovchisi. Bilish psixik bilish jarayonlari orqali amalga oshadi: sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, nutq. Amerikalik psixolog Dj.Bruner shunday fikrlar keltirganki, o'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan «Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish bu jarayon, mahsul emas».

Ma'lumki, bilish faoliyatining subyektivi o'quvchi sanaladi, shu bois ijtimoiy pedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, ongi ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

N.A.Menchinskaya o'quvchilar misol va faktlar asosida nazariy xulosalar qilishi, qoidalarni ifodalashi oson va bu xulosalarni yangi misol va faktlarni tushuntirish uchun qo'llash ancha qiyin kechishini ta'kidlagan. Mashqlarni tashkil etishning bu kabi metodikasi o'quvchilarning aqliy rivojlanishini intensivlash vazifasi qo'yilgan bugungi kunlarda alohida ahamiyatga ega. Lekin mashqlar ular ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga olsagina, o'quvchidan fikrning netrivil burilishlarini fikrlash, aqliy mustaqillikni talab etsagina, rivojlantiruvchi xarakter berishi mumkin.

J.Musayevning fikricha, o'quvchining fikrlash qobiliyati uning fahm-farosati, aql-zakovati, zehni, shuningdek, o'rab turgan atrof-muhitga bog'liq. E.G'oziyevning «Ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sishi»² O'quvchining fikrlash qobiliyati uning bilimdonligi, intellektual salohiyati bilan bog'liqdir. Fikrlash- doimo harakatda bo'lgan jarayon bo'lsa, aql va bilim uning vositasi, ayni vaqtda hosilasidir. Aql yordamida inson hamisha eng og'ir vaziyatdan chiqish uchun o'ziga to'g'ri yo'l axtaradi va topadi. Eng qiyin muammolarni bartaraf etadi.

O'quvchi mustaqil fikrlashini ta'minlovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarda nazariy bilimlarning mavjudligi;
- mavjud muammolarni tahlil eta olish ko'nikmalarining shakllanganligi;
- o'zgalar fikrini tinglay olish ko'nikmasiga egaligi;
- o'z faoliyatini maqsadli tashkil eta olishi;
- orttirilgan tajribalarga tayana olishi;
- atrof-muhit bilan ishchan muloqot o'rnata olishi.

Fikr yuritish (tafakkur) - inson aqliy faoliyati, aql- zakovati, muomala jarayoni, ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi davr o'quvchisi mustaqillik sharofati bilan berilgan imkoniyatlardan o'rinli foydalanishi uchun u

² Kaldibekova A, Xodjayev B "O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari" (uslubiy qo'llanma) Toshkent 2006- yil.7-bet.

mustaqil fikrlay bilishi, har bir jarayonga mantiqiy yondasha olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Pedagogika fanlari doktori R.Safarova: «Zamonaviy didaktikaning asosiy yo'nalishlaridan biri ixcham, sodda ta'lim mazmuni vositasida o'quvchini rivojlantirish haqidagi qarashlar tizimidir. Bu yo'nalish Piaje, J.Bruner, L.S.Vigotskiylarning intellektni rivojlantirish haqidagi g'oyasiga tayanadi», - deya ta'kidlaydi. Bu jarayonda ta'limning barcha me'yoriy hujjatlari o'quvchi shaxsiga sodda, qulay yo'llar bilan xizmat qilishi lozimligi ko'zda tutiladi.

Psixolog olimlar M.Akimova va E.Golubevalar tadqiqotlarida intellektni rivojlanishi faollikka bog'liq ekanligini isbotlab berganlar. Intellektual faollikning yetishmovchiligi bosh miyaning qon bilan ta'minlash darajasining pasayishi o'z navbatida intellektning holatiga, shuningdek, xotirasiga ta'sir qilishga olib keladi.

Xotiraning holati intellektning rivojlanish darajasi bilan tig'iz bog'liq bo'lib, inson intellektual qobiliyatining harakatlanishi to'la bo'lmasligi - bu xotiraning pasayishini birinchi belgisi hisoblanadi.

Pedagoglar boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishlari kerak. 6-10 yoshda insonning tafakkuri shakllanadi – analitik, vizual-majoziy yoki aralash. Boshlang'ich maktabda esa aynan shu tafakkur xususiyatlari asosida bolalarda intellektual salohiyat faol rivojlanishi kerak. Operativ xotira (bir nechta oraliq faktlarni, yechimlarni, xulosalarni boshida ushlab turish qobiliyati)dir.